UO‘K 331.101.262

INSON SALOHIYATI TIZIMINING ELEMENTLARI DIALEKTIKASI

X.N. Xolmirzayev

Maqolada inson salohiyati tizimining ikkinchi elementi hisoblangan inson kapitali tushunchasi tahlil qilingan. Shuningdek, inson salohiyatini falsafiy muammosiga tizimli yondashuv zarurligi, uning murakkab sistema sifatida turli elementlarni o‘zida birlashtirishi va mazkur elementlar inson salohiyatining asosini tashkil etishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: *inson salohiyati, inson kapitali, ijtimoiy kapital, siyosiy kapital, intellektual kapital, inson resurslari.*

В статье проанализировано понятие человеческого капитала, который считается вторым элементом системы человеческого потенциала. Кроме того, в научном аспекте обосновано, что необходим системный подход к философской проблеме человеческого потенциала, человеческий потенциал как сложная система сочетает в себе различные элементы, и эти элементы составляют основу человеческого потенциала.

Ключевые слова: *человеческий потенциал, человеческий капитал, социальный капитал, политический капитал, интеллектуальный капитал, человеческие ресурсы.*

Kirish

Insonga aloqador hodisalar antropologik va sotsiologik yondashuvlar asosida o‘rganiladi. Ularning barchasi inson kabi murakkab xususiyatga va strukturaga ega. Inson salohiyati ham shular jumlasidan. Shuning uchun inson salohiyati tizimining tuzilishi va uni tashkil etuvchi elementlarning xususiyatlari sistem yondashuv asosida tahlil etilishi maqsadga muvofiq. Inson salohiyati tizimi elementlari mohiyatini uning xususiyatlari belgilaydi.

Inson salohiyatini tashkil qiluvchi elementlar inson kapitali va inson resurslaridan iborat. Ularning har biri ham o‘ziga xos tizim bo‘lib, strukturasi murakkab hisoblanadi.

Inson kapitali shaxsning ijtimoiy tajribasi asosida yig‘iladigan hamda uning faoliyatiga imkon beruvchi bilimi, ko‘nikmasi, salomatligi kabilarni o‘z ichiga oluvchi ijtimoiy hodisa. Inson kapitali uning salohiyati yuksalishining asosi. Inson salohiyati negizida uning kapitali paydo bo‘ladi. Inson kapitali shaxsning hayoti davomida tug‘ma bo‘lgan va orttirgan jismoniy va ma’naviy salomatligi, ijtimoiy tajribasi, bilimlari, ko‘nikmalari tashkil etadi.

Inson kapitalida uning antropologik mohiyati aks etadi. Insonning axloqi, madaniyati, ma’naviyati, bilimi, ta’limi, ijtimoiy faoliyati, faolligi, qadriyatlar tanlovi, aksiologik oriyentatsiyasi va boshqa xususiyatlari asosida uning kapitali shakllanadi. Inson qobiliyatini o‘zi va jamiyat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan qobiliyat va bilimlarning birikmasi sifatida ta’riflash mumkin.

Material va usullar

Inson salohiyatini falsafiy tahlil etishda muammoga tizimli yondashish zarur. Bu nuqtayi nazardan inson salohiyati murakkab tizim sifatida turli elementlarni o‘zida birlashtirgan bo‘lib, ushbu elementlar inson salohiyatining asosini tashkil etadi. Tizimli yondashuv tadqiqot obyektini bir tomondan, butun sifatida va ikkinchi tomondan, turli elementlardan iborat tizim sifatida o‘rganishga imkon beradi. Ma’lum tizimga ega bo‘lgan butun obyektning mohiyati va xususiyatlari uni tashkil etuvchi elementlarning xususiyatlari va o‘zaro aloqalari bilan belgilanadi. Elementlarni butunning qismlari sifatida ham ta’riflash mumkin.


Har qanday yaxlit butunlik – tizim o‘zining elementlari orqali mavjud bo‘ladi. Tizimning elementlari yoki butunning qismlari o‘rtasida doimo o‘zaro bog‘liqlik va o‘zaro ta’sir mavjud. Alohida olingan qism yoki element tizimga yoki butunga teng emas va yakka holda uning mohiyatini belgilab bo‘lmaydi. Qismlar va elementlar o‘rtasidagi bog‘liqlik asosida ularning xususiyatlari o‘zaro dialektik aloqada bo‘ladi va bir-birining mohiyatiga ham ta’sir etadi. Shu bilan birga tizim elementlari ketma-ketligi va ma’lum evol-

yutsiyasini aniqlaydi. Mana shunday asosda tizim ma'lum xususiyatlarga ega bo'lgan va tamoyillarga bo'ysungan holda o'zini saqlaydi va mavjud bo'ladi.

Borliqda mavjud bo'lgan har qanday tizim ma'lum xatti-harakatlar va maqsadga yo'nalgan. Tizimning harakati asosida uning mavjudligi va hayoti ta'minlanadi. Bunday dialektik bog'liqlik va aloqadorlik, harakat har qanday tizimning nafaqat mavjudligi, balki taraqqiyotini ham ta'minlaydi. Inson salohiyatini tadqiq etish holatida bu tizim uning elementlarining mavjudligi va harakatiga bog'liq. Inson salohiyati tizimining mohiyati unga tegishli bo'lgan elementlarning ichki dialektik bog'liqligi va dinamikasiga asoslanadi.

Inson salohiyatini tizim sifatida tadqiq etish uning tarkibiga kiruvchi qismlarni alohida o'rganishni taqozo etadi. Fikrimizcha, inson salohiyati tizimini quyidagi elementlar tashkil etadi:

- inson kapitali;
- inson resurslari (1-rasm).



1-rasm. Inson salohiyati tizimi.

Hozirgi kunda inson salohiyati bo'yicha yaratilgan ilmiy asarlarda olimlarimiz salohiyatni yakka inson bilan bog'lash bilan cheklanayotganlari yo'q. Aksincha, salohiyat muammosini falsafiy fanlar doirasida millat yoki mamlakat, jamiyat bilan bog'liq ravishda turli tarixiy davrlar doirasida o'rganilmoqda. Xususan, akademik G.I.Zaslavskaya salohiyat muammosini bitta inson bilan emas, u tegishli bo'lgan jamiyat hamda millat salohiyati bilan bog'lagan holda tahlil etgan. Mazkur salohiyat dunyoda raqobat kuchayib borayotgan sharoitda millat va jamiyat taraqqiyotini belgilab berishi mumkin. Shuningdek, u "inson salohiyati"ga ijtimoiy-iqtisodiy sohaga tegishli ilmiy kategoriya sifatida qaraydi. G.I.Zaslavskayaning fikricha, "... jamiyatdagi inson salohiyati – bu milliy birlikning o'z-o'zini faol taraqqiy ettirishga tomon intilishi, tashqi muhit tomonidan va jamiyatlar o'rtasida tobora kuchayib borayotgan raqobat natijasida yuzaga kelayotgan ko'plab savollarga tezkorlik bilan va to'g'ri javob berishga tayyorligi va qobiliyati"dir [1. B. 10].

Ko'rinib turibdiki, jamiyat, millat salohiyati ijtimoiy hayotning barcha sohalarida yuzaga kelayotgan turli chaqiriqlarga javob bera olish qobiliyatini ifoda etadi.

Inson salohiyatining asosida inson kapitali turadi. Inson kapitali shaxsning o'z hayotiy tajribasidan kelib chiqib, butun hayoti davomida yig'ib boradigan, insonga jamiyatda amalga oshiradigan faoliyati uchun asos va resurs bo'lib xizmat qiladigan, muntazam ravishda salohiyatini oshirishga imkon beruvchi bilimlari, ko'nikmalari, ijtimoiy tajribasi va shu bilan birga insonning jismoniy va ijtimoiy salomatligidir. Inson kapitali uning salohiyati doirasida shakllanadi va rivojlanadi. Bundan kelib chiqadiki, inson kapitalining shakllanishi va rivoji inson salohiyatining rivojlanishi demakdir.

Inson salohiyati va inson kapitali o'zaro bog'liq jarayon sifatida insonning jamiyatda o'zini realizatsiya qila olishining imkoniyatidir. Bu jarayonning muhim elementlari insonning qobiliyatini tashkil etadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning fikrlarini keltirish o'rinli bo'ladi. Uning "Asosiy maqsad – mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish" mavzusidagi ma'ruzasi aynan mamlakatimizda inson kapitalini va innovatsiyalarni rivojlantirish muammosiga bag'ishlangan [2].

Natijalar

Jamiyat, davlat, millatning kapitalini tashkil etuvchi omillar tizimida har bir insonning, jamoaning barcha a'zolarining kapitali turadi. Mazkur kapitallar yig'indisi tegishli jamiyatning mavjud kapitalini tashkil etadi. Jamiyatning barcha sohalarining taraqqiyoti markazida inson kapitali turadi. Ijtimoiy sohalarning strategemalari, albatta, inson kapitalining ham kelgusi taraqqiyoti, imkoniyatlari va istiqbollarini nazarda tutadi. Davlat va hukumatlar o'z ichki va tashqi siyosatining yo'nalishlarini, kelgusi taraqqiyot istiqbollarini inson kapitali va uning ahamiyati, taraqqiy etishi, yangilanishi kontekstida belgilaydi va rejalashtiradilar.

Jamiyatning kelajagi, istiqboli ko'p jihatdan insonning innovatsion faoliyatiga bog'liq bo'lgan. Insonning intellektual resurslari, intellektual salohiyati inson kapitali hisoblanadi, degan fikrlar bir qator G'arb faylasuflari tomonidan ilgari surilib, mazkur fikrlar asosida inson kapitali nazariyasi ishlab chiqildi.

"Inson kapitali" tushunchasini olimlar turlicha talqin etadilar. Inson kapitalini o'rganish borasida dastlabki nazariyalar amerikalik olimlar T.Shuls, U.Petti va G.Bekker, B.Veysbrod, D.Minser, G.Xansen tomonidan o'tgan asrning 60-yillarida yaratilgan. Yuqorida fikrlari keltirilgan olimlarning yondashuvi asosida inson kapitalining bevosita yuksalishiga imkon yaratuvchi ijtimoiy soha sifatida ta'lim tizimini alohida qayd etish zarur. Bu borada ta'lim tizimi tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ta'lim tizimida inson faoliyatiga tegishli bo'lgan alohida vazifalar, ya'ni bilim olish, kasbga tayyorgarlik hamda kasbga yo'nalganlik jarayonlari amalga oshadi. Mazkur jarayonlar inson kapitalini oshirish asosida uning salohiyatini yuksaltirishning imkoniyatlari bo'lib xizmat qiladi.

G.Bekkerning 1964 yilda nashr etilgan "Human Capital" nomli kitobida inson kapitalining nazariy modeli berilgan [3]. G.Bekkerning inson kapitali nazariyasi keyinchalik bu sohada yaratilgan ilmiy tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Olim tomonidan inson kapitalini o'rganish jarayonida masalaga asosan iqtisodiy nuqtayi nazardan yondashilganini ko'rish mumkin. Vaqt o'tishi bilan inson kapitali bo'yicha iqtisodiy nazariyalar ijtimoiy jarayonlarga nisbatan ham qo'llanila boshlandi. "Inson kapitali" kategoriyasiga bog'liq ravishda "ijtimoiy kapital", "siyosiy kapital", "intellektual kapital", "inson resurslari" kabi tushunchalar ham paydo bo'ldi.

Inson salohiyatini o'rganuvchi nazariyalarning markazida inson kapitali muammosi turadi. Inson kapitalini uning salohiyatiga aloqador ravishda ijtimoiy falsafa doirasida tahlil etish zarur deb hisoblaymiz. Chunki insonga aloqador har bir hodisa falsafiy antropologiya doirasida o'rganilishi zarur. Jamiyatda amalga oshadigan ijtimoiy hodisalarning markazida inson turadi. Jamiyat sohalarining asosiy taraqqiyot omili, determinanti subyekt va uning faoliyati bilan bog'liq. Jamiyatda amalga oshayotgan har qanday ijtimoiy jarayonlar, hodisalar, albatta, insonga aloqador bo'lib, ular insonning hayotida, faoliyatida va xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, ijtimoiy borliq, jamiyat hayotining barcha sohalari o'zaro dialektik aloqadorlikda mavjud bo'ladi. Turli sohalar bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Insonning atributi uning ijtimoiyligi, ya'ni jamiyatda mavjud bo'lishi, uning ta'sirida bo'lish va shu bilan birga o'z faoliyati orqali jamiyatga qo'shilib ijtimoiylashib borishidir. Albatta, bu jarayonda inson salohiyati jamiyatda ma'lum vazifani bajarish nuqtayi nazaridan muhim bo'lsa, o'z navbatida jamiyat ham insonning salohiyatini realizatsiya qilishiga hamda yuksalishiga imkon yaratadi.

Inson o'zini, xususiyatini, ichki ehtiyojlari va manfaatlarini, orzu-umidlari, salohiyatini jamiyatda, jamiyat bilan o'zaro munosabatda yuzaga chiqara oladi. Insonning antropologik mohiyatini tashkil etuvchi ijtimoiy hodisalar, ya'ni uning ongi, tili, mehnat qilishi, ongli faoliyati, boshqalar bilan o'zaro munosabatlari, ehtiyojlarining ortib borishi va qondirilishi kabilar inson va jamiyatni o'zaro bog'lab turuvchi ijtimoiy antropologik hodisalar bo'lib, ular natijasida inson va jamiyat salohiyati o'rtasida dialektik bog'liqlik yuzaga keladi.

Inson salohiyati zamonaviy ilmiy-falsafiy muammolarning biriga aylandi. Fan va texnologiyaning beqiyos rivojlanishi inson salohiyatini o'rganish, mazkur muammoga yangicha yondashuvlar zarurligini yana bir karra qayd etmoqda. O'tgan asrning deyarli 80-yillarigacha inson salohiyati kam o'rganilgan soha edi. Lekin shunga qaramasdan, bu ijtimoiy hodisa falsafa, antropologiya sohasida insonga tegishli boshqa masalalarga bog'liq tarzda tadqiq etilgan.

Inson salohiyatiga deterministik yondashuv asosida mazkur hodisani boshqa antropologik mohiyatga ega bo'lgan hodisalarga aloqadorlik kontekstida tahlil etish maqsadga muvofiq. Dialektika nuqtayi nazaridan borliqdagi har qanday hodisalar va jarayonlar doimo harakatda, rivojlanishda amalga oshuvini, inson salohiyati ham ana shunday qonuniyat doirasida mavjud bo'lishini nazarda tutsak, uning taraqqiyotini bir qator ijtimoiy hodisalar belgilashini anglab olamiz. Inson, shaxs muammosi o'zining murakkabligi bilan ijtimoiy-falsafiy sohaga tegishli boshqa muammolardan ajralib turadi. Inson salo-

hiyatini tadqiq qilish jarayonida turli yondashuvlar, nazariya va fikrlarning xilma-xilligi bu muammoning murakkabligini anglatadi va inson salohiyatini aynan falsafiy jihatdan o‘rganishni qiyinlashtiradi. Inson salohiyatini o‘rganuvchi nazariyalarning turli-tumanligi uning tendensiyalari, dinamikasi va taraqqiyot istiqbolini ifoda etadi.

Inson salohiyatini falsafiy o‘rganish muammoni yuqori umumiylik darajasida tadqiq etishni anglagan holda obyektni faqat antropologik emas, balki gnoseologik, praksiologik hamda aksiologik nuqtayi nazardan o‘rganishni talab etadi. Bir qator olimlar inson salohiyati va inson malakasini o‘zaro bog‘liqlikda tadqiq etadilar. “Inson kapitali” intellektual hayot, inson salohiyati va malakasining majmuasi kabi turli sohalarning birlashmasiga asoslanadi. Intellektual hayot sohasiga fan, san’at, din, ta’lim kiradi. Inson salohiyati gnoseologik (bilish), yaratuvchilik (ijodiy), aksiologik (qadriyatli oriyentatsiya-yo‘nalgan), kommunikativ va estetik kabi inson salohiyatining shakllarini o‘z ichiga oladi. Ko‘rinib turibdiki, muallif inson salohiyati masalasini inson kapitali bilan bog‘liq holda tahlil etadi. Tahlil qisman praksiologik yondashuvga ham asoslanib, inson salohiyatini jamiyatning sohalariga mos va ularga bog‘liq holda o‘rganadi.

Inson kapitali va salohiyatining o‘zaro aloqadorligi muammosini o‘rgangan P.V.Lemanova inson kapitali inson salohiyatining asosini tashkil etishini va unga asoslanishini e’tirof etadi va inson salohiyatini quyidagicha ta’riflaydi: “Inson salohiyatini uning malakasini tashkil etuvchi elementlar: insonning o‘z ishiga aqlini, energiyasini, pozitivligini, ishonchligini, sadoqatliligini, hayot qiyinchiliklarida ishonch bilan ishonchsizlikka qarshi tura olishini, bahslarda aniq pozitsiyaga ega bo‘lishini, mehnat faoliyati amalga oshiriladigan siyosiy va iqtisodiy muhit sharoitlarini baholay olishini, insonning o‘rganishga intilishini, qobiliyatini, tasavvurini, insonning ijodiy xarakterini, turli hayotiy muhitlarda ishga vijdonan munosabatini, bilimlarning borligini anglay olishi va ularni tartibga sola olishini, maqsad va vazifalarni qo‘ya olishi, nostandart vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘nalishni topishi, yuzaga kelgan muammolarni ratsional hal eta olishini, yangi axborotni topish va uni boshqalar bilan bo‘lishish, guruhda ishlay bilish va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni pozitiv yo‘naltirishni, zamonaviy axloqiy qoidalarga bo‘ysunish va boshqalar belgilaydi” [4. B. 14]. Olima inson salohiyatini murakkab tizim sifatida ta’riflab, mazkur tizim o‘z ichiga o‘nlab elementlarni birlashtirishini aytib o‘tadi. P.V.Lemanovaning fikridan ko‘rinib turibdiki, inson kapitali inson salohiyatining asosini tashkil etadi. Olimaning tahliliga e’tibor qaratsak, inson kapitali ham, salohiyati ham dastlab iqtisodiy hodisa sifatida namoyon bo‘lgan. Asta-sekin bu hodisalar yanada ijtimoiy mohiyat kasb etib borayotganini ko‘ramiz. Chunki inson o‘zini dastlab asosan iqtisodiy sohada realizatsiya qilib salohiyatini yuzaga chiqargan bo‘lsa-da, o‘z evolyutsiyasida iqtisodiygina emas, madaniy-ma’naviy, ilmiy, estetik, diniy va boshqa sohalarda ham faoliyat ko‘rsatib borishi tabiiy. Bu jarayon jamiyat taraqqiyoti natijasida yangi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib, inson salohiyatining yangi shakllarining yuzaga chiqishiga olib keladi.

Insonning ijtimoiy munosabatlarda ishtirokining sur’atlari oshib borgani sari uning salohiyatini yuzaga chiqarish hamda yuksaltirish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo‘lishi tabiiy. Bunday munosabatlar inson – inson, inson – jamiyat, inson – iqtisod, inson – ilm-fan, inson – ma’naviyat va h.k. munosabatlar tizimida shakllanadi va davr ruhidan kelib chiqib amalga oshadi.

Muhokama

Yana bir tadqiqotchi A.I.Dobrinin inson kapitaliga bag‘ishlangan maqolasida “... insonning investitsiya natijasida shakllangan va inson tomonidan yig‘ilgan o‘z sog‘lig‘i, bilimi, ko‘nikmalari, qobiliyati, motivatsiyasining ma’lum zaxirasi bo‘lib, u inson salohiyatining taraqqiyotiga ta’sir etadi” [5. B. 244], deb yozadi. Insonga investitsiya kiritilishi to‘g‘risida gap borganda, faqat iqtisodiy investitsiya nazarda tutilmaydi. Jamiyat, millat, yakka inson uchun kiritiladigan investitsiyalar madaniy-ma’naviy, ilmiy-texnologik va boshqalari ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Bu investitsiyalar insonning sog‘ligi, turmush darajasining yaxshilanishi, talab darajasida raqobatbardosh bilim va ta’lim olishi, kasbiy yo‘naltirilishi, milliy tarixiy, ma’naviy va madaniy boyliklar va qadriyatlarni o‘zlashtirishi, tegishli sohalarda o‘z malakasi va tajribasini oshirishiga sarflanadi. Shu bilan birga hozirgi innovatsion rivojlanish davrida jamiyatda, ayniqsa, yoshlarda innovatsion tafakkurni shakllantirish, uni innovatsion faoliyatni rivojlantirish va kengaytirishga talab ortdi. Innovatsion faoliyati esa mamlakatimizning strategik maqsadlariga yo‘naltirish va boshqa progressiv taraqqiyotga xizmat qiluvchi sohalar va yo‘nalishlarga qaratilgan har qanday moddiy va ma’naviy investitsiya nazarda tutiladi.

Inson kapitali va inson salohiyatining rivojlanishi hamda ortib borishi muammolarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, jamiyatda inson taraqqiyoti uchun imkoniyatlar kengayib borgani sari inson kapitalini boshqarish muammosi yuzaga keladi. Chunki millat

va jamiyat taraqqiyotining rivojlanishi ko‘p jihatdan jamiyat va uning a’zolarida mavjud bo‘lgan kapitalni to‘g‘ri boshqarish va to‘g‘ri yo‘naltirishni talab etadi. Olim S.A.Kurganskiy “inson kapitali”ni iqtisodiy kategoriya sifatida talqin etadi. Olim tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda inson kapitali muammosi jamiyat iqtisodiy taraqqiyotining muhim jihatini ekanligi va unga investitsiyalarning kiritilishi iqtisodiy taraqqiyot rivojiga ijobiy ta’sir etishini belgilab beradi, deb hisoblaydi. Uning fikricha, “inson kapitali” tushunchasi investitsiyalar natijasida shakllangan hamda individ tomonidan yig‘ilgan bilim, ko‘nikmalar va boshqa sifatlarning zaxirasi bo‘lib, ulardan maqsadli foydalanish yangi narx va foydalar oqimini olib keladi” [6. B. 15]. Ko‘rinib turibdiki, yuqorida keltirilgan fikrlar inson kapitalini jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi zaxira sifatida ta’riflash o‘ziga xos yondashuv bo‘lib, u inson kapitali jamiyatning kelajagi uchun ham xizmat qilishini nazarda tutadi.

S.A.Kurganskiyning fikricha, “... insonning qobiliyati, xususiyatlari, bilimlari, ko‘nikmalari va boshqalariga kapitalning o‘ziga xos shakli sifatida qarash mumkin, chunki ular:

- to‘planib (ko‘payib) borish xususiyatiga ega bo‘lib, ma’lum zaxirani tashkil etadi;

- uning tashuvchisiga kelajakda kundalik iste’molning ma’lum qismidan voz kechish hisobiga yuqori foyda olish imkonini beradi;

- jamiyat uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri foyda olish qo‘shimcha mahsulotning o‘sishi bilan bog‘liq;

- inson kapitali shakllanishi davomida individdan ham, jamiyatdan ham katta investitsiyalarni talab etadi;

- har bir individning shaxsiy yutug‘i boyligi hisoblanadi. Tadqiqotchi inson kapitalini insonning shaxsiy mulki sifatida qaraydi. Lekin shu bilan birga har qanday shakldagi inson kapitali jamiyatning ijtimoiy boyligi sifatida ijtimoiy mohiyatga ega bo‘lib, u o‘ziga xos tizim sifatida namoyon bo‘ladi [6. B. 15].

Iqtisodiy jihatdan o‘rganilgan holatda ham bu boradagi har qanday muammo, qismlardan, inson kapitali ham ijtimoiy muammo hisoblanishi ma’lum, chunki u inson va jamiyatning hayoti, uning mavjudligi masalalarining determinanti hisoblanadi.

Shunday qilib, “kapital” tushunchasi ijtimoiy boylikning barcha elementlarini o‘z ichiga oladi. Kapital ko‘p qirrali iqtisodiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi, turli shakllarni qabul qiladi, turlicha vazifalarni bajaradi, ya’ni bozor iqtisodiyotining “barcha sohalarni egallab boruvchi”, tizim sifatidagi komponentiga aylanadi [6. B. 15].

Xulosa

Inson yoki shaxs kapitalini o‘z mohiyatidan kelib chiqib, guruh, jamiyat, millatga tegishli kapital bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘rganish va ilmiy-falsafiy tahlil qilish darkor. Yakka inson tadqiqi u yashayotgan ijtimoiy muhit, uning ma’naviyati, qadriyatlari, madaniyati bilan identifikatsiyasi kontekstida yondashishni talab etadi, chunki mazkur kapital asosida insonning mohiyati, identifikatsiyaviy xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Jamiyatda yuz beradigan ijtimoiy hodisalar markazida inson turgani va ularda insonning salohiyati ishtirok etgani sababli, mazkur ijtimoiy hodisalar bir vaqtda mazkur salohiyat va uning elementlariga aloqadordir. Bunday dialektik aloqadorlik inson salohiyati tizimining muntazam ravishda taraqqiy etishiga ham, unda yangi elementlarning paydo bo‘lishiga ham olib kelishi mumkin.


Inson kapitali uning taraqqiyotini, kelajakdagi ideallari, rejalarini belgilab berishi bilan jamiyat va millatning istiqboliga ham aloqador bo‘ladi. Iqtisodchi olim M.A.Axunovning fikricha: “Shu ma’noda inson kapitali insonga kelajakda katta natijalar va foyda olish maqsadida sihat-salomatligi, ta’lim va tarbiya olishi, kasb-hunarga ega bo‘lishi va ish bilan ta’minlanishi, qobiliyat va salohiyatini rivojlantirishi uchun sarflanadigan xarajatlar – investitsiyalardir” [7. B. 52].

Yuqorida qayd etilgan fikrlar bilan bir qatorda inson kapitali masalasida o‘ziga xos yondashuvga ega bo‘lgan tadqiqotchilarning ilmiy ishlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, endilikda ko‘plab olimlar tomonidan inson kapitalining mohiyatini iqtisodiygina emas, ijtimoiy-madaniy, siyosiy nuqtayi nazardan ham o‘rganish ommalashdi. Jumladan, fransuz sotsiologi Per Burde (1930–2002) “kapital” tushunchasini qo‘llash sohalarini kengaytirib, “ijtimoiy kapital”, “siyosiy kapital”, “madaniy kapital” tushunchalarini ilmiy muomalaga kiritdi. Uning fikricha, bilimi, madaniyat darajasi, ijtimoiy tajribasi va ko‘nikmalari ortib borgani sari individlar va guruhlar ma’lum ijtimoiy mavqega ega bo‘lishga intilib boradilar. Ular manfaatlari va ehtiyojlarini yanada aniqroq ifoda etadilar, o‘zlarini kuchliroq namoyon qilishga intiladilar. Ijtimoiy kapitallariga iqtisodiy kapitalini ham manfaatlari yo‘lida qo‘llab va undan foydalanib, yanada yuqoriroq mavqega va hokimiyatga ega bo‘lishga intiladilar [8. B. 98–102].

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda inson kapitali bo‘yicha anchagina ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda [9]. Iqtisodchi olimlar muallifligida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida 2013-yil nashr etilgan “Inson taraqqiyoti” nomli darslik bu sohada katta yutuq

bo‘ldi. Mazkur darslikda inson taraqqiyoti konsepsiyasi va uning mezonlari mukammal yoritib berilgan [10].

Inson kapitalini yuqorida keltirilgan qarashlar asosida quyidagicha ta’riflash mumkin: inson kapitali – shaxsning va jamiyatning tobora ortib boruvchi ehtiyojlarini qondirish orqali o‘z salohiyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladigan qobiliyati, bilimi, ijtimoiy tajribasi va ko‘nikmalari yig‘indisidir. (2-rasm)



2-rasm. Inson kapitali.

Adabiyotlar:

1. *Заславская Т.И.* Двадцать лет российской трансформации. Человеческий потенциал в современном трансформационном процессе // *Общественные науки и современность, 2005.* – № 3. Pp. 5–16.

2. *Мирзиёев Ш*. Асосий мақсад – мамлакатимизда инсон капиталини ривожлантириш [Интернет манба]. URL: www.president.uz/uz/2604 (Мурожаат этилган сана: 11.03.2021)

3. *Becker G.S.* Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education, Second Edition. – New York and London: National Bureau of Economic Research, 1975. – 268 p.

4. *Леманова П.В*. Социальная политика в управлении развитием человеческого капитала. – Москва: Издательский дом Академии Естествознания, 2016. – 228 с.

5. *Леонтьева А.Н.* Экономические проблемы регионов и отраслевых комплексов // Евразийский международный научно-аналитический журнал, 2012. – № 3. (43), – С. 243–252. [Электронный ресурс]. URL: http://www.m-economy.ru/art.php?nArtId=4219 (Дата обращения: 14.01.2024)

6. *Курганский С.А.* Структура человеческого капитала и его оценка на макроуровне // Известия Байкальского государственного университета, 2011. – № 6. – С. 15–22. [Электронный ресурс]. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/struktura-chelovecheskogo-kapitala-i-ego-otsenka-na-makrourovne (Дата обращения: 15.04.2021)

7. *Ахунов М.А*. Инсон омили – ижтимоий иқтисодий тараққиётнинг етакчи кучи ва бош мақсади. // Илмий хабарнома – Научный вестник, 2016. –№ 1. – Б.50–53.

8. Bourdieu, P. The forms of Capital, in: Granovetter, M. and R.Swedberg (eds.). The Sociology of Economic Life. 2nd ed. Boulder: Westview Press, 2001. P. 98-102 [Online]. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ ponyatie-kapitala-formy-kapitalov-i-ih-konvertatsiya/pdf (Date of Access: 16.03.2022)

9. *Салохўжаев Р.* (2020) Инсон капитали тараққиёти замонавий иқтисодиётни ривожлантиришнинг ягона йўли. [Интернет манба]. URL: https://review.uz/oz/post/rauf-saloxojaev-inson-kapitali-taraqqiyoti-zamonaviy-iqtisodiyotni-rivojlantirishning-yagona-yoli (Мурожаат этилган сана: 10.01.2021)

10. *Акрамова Ш.Г.* Инсон капитали: моҳияти ва уни ўрганишга ёндашувлар. // Иқтисод ва молия / Экономика и финансы, 2011. – №10. – Б.53–57. [Интернет манба]. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/inson-kapitali-mo-iyati-va-uni-rganishga-yondashuvlar. (Мурожаат этилган сана: 23.01.2022)

11. *Ташкенбаев У.* Ўзбекистонда шахс ўз салоҳиятининг неча фоизидан фойдалана олиши ҳисоблаб чиқилди [Интернет манба]. URL: https://kun.uz/news/2020/10/18/ozbekistonda-shaxs-oz-salohiyatining-necha-foizidan-foydalana-olishi-hisoblab-chiqildi (Мурожаат этилган сана: 10.01.2021)

12. Инсон тараққиёти. Дарслик. / Қ.Х.Абдураҳмонов таҳрири остида – Тошкент: Fan va texnologiya, 2013. – 542 б.

DIALECTIC OF THE ELEMENTS OF THE HUMAN COMPETENCE SYSTEM

Hurshid N. Holmirzaev[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 1(77)13-20.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str., University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: Human potential, human capital, social capital, political capital, intellectual capital, human resources.

All human-related phenomena are studied based on anthropological and sociological approaches. All of them have a complex nature and structure like a human being. Human potential also expresses its own essence and structure. It is desirable to analyze the structure of the human potential system and the characteristics of its constituent elements based on a systematic approach.

Philosophical analysis of human potential requires a systematic approach to the problem. From this point of view, human potential is a complex system that combines various elements, and these elements form the basis of human potential. To determine the structure of human potential and the characteristics of its related elements, in a word, a systematic approach is necessary to study the essence of human potential. Systematic approach allows studying the research object as a whole on the one hand and as a system consisting of different elements on the other hand. The essence and properties of the whole object with a certain system are determined by the properties of the elements that make it up. Elements can also be described as parts of a whole.

In the system of factors that make up the capital of the society, the state, the nation, there is the capital of each person, all members of the community. The sum of these capitals constitutes the existing capital of the respective company. Human capital is at the center of the development of all areas of society. The strategies of the social spheres necessarily assume the future development, possibilities and prospects of the human capital. States and governments determine and plan the directions of their internal and external policies, future development prospects in the context of human capital and its importance, development, renewal.

Studying the problems of development and growth of human capital and human potential shows that as opportunities for human development in society expand, the problem of human capital management arises. Because the development of the nation and society requires proper management and proper direction of the capital available in the society and its members.

As it is known, we believe that it is correct to study and scientifically-philosophically analyze the capital of a single person or individual based on its essence, in relation to the capital belonging to a group, society, nation. A single person needs to be considered in the context of identification with the social environment in which he lives, his spirituality, values, and culture, because on the basis of this capital, he expresses the essence of a person and his identity characteristics. Since the person is at the center of the social phenomena occurring in the society and human potential is involved in them, these social phenomena are related to this potential and its elements at the same time. Such a dialectical relationship can lead to the systematic development of the system of human potential and the emergence of new elements in it.

References:

1. Zaslavskaya, T.I. (2005) Dvadcat' let Rossijskoj transformacii. Chelovecheskij potencial v sovremennom transformacionnom processe. [Twenty years of Russian transformation. Human potential in the modern transformation process]. *Obshchestvennye nauki i sovremennost'*. No 3. Pp. 5-16.

2. Mirziyoev, Sh.M. (2019) Asosiy maqsad - mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish. [The main goal is to develop human capital in our country]. [Online]. URL: www.president.uz/uz/2604 (Date of Access: 11.03.2021)

3. Becker, G.S. (1975) *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education, Second Edition*. New York and London: National Bureau of Economic Research.

4. Lemanova, P.V. (2016) *Social'naya politika v upravlenii razvitiem chelovecheskogo kapitala*. [Social policy in managing human capital development]. Moscow: Izdatel'skij dom Akademii Estestvoznaniya.

5. Leonteva, A.N. (2012) Ekonomicheskie problemы regionov i otraslevыx kompleksov [Human capital in the sustainable development of the regional economy]. *Evrazijskij mezhdunarodnyj nauchno-analiticheskij jurnal.* No 3 (43). Pp. 243-252. [Online]. URL: http://www.m-economy.ru/art.php?nArtId=4219 (Date of Access: 14.01.2024)

6. Kurganskij, S.A. (2011) Struktura chelovecheskogo kapitala i ego ocenka na makrourovne [The structure of human capital and its assessment at the macro level]. *Izvestiya Bajkal'skogo gosudarstvennogo universiteta*. No 6. Pp. 15-22. [Online]. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ struktura-chelovecheskogo-kapitala-i-ego-otsenka-na-makrourovne (Date of Access: 15.04.2021)

7. Axunov, M.A. (2016) Inson omili - ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi kuchi va bosh maqsadi. [The human factor is the leading force and main goal of social and economic development]. *Ilmiy xabarnoma – Nauchnyj vestnik*. No 1. Pp. 50-53.

8. Bourdieu, P. The forms of Capital, in: Granovetter, M. and R.Swedberg (eds.). The Sociology of Economic Life. 2nd ed. Boulder: Westview Press, 2001. R. 98-102 [Online]. URL: https://cyberleninka.ru/ article/n/ ponyatie-kapitala-formy-kapitalov-i-ih-konvertatsiya/pdf (Date of Access: 16.03.2022)

9. Saloxo'jaev, R. (2020) Inson kapitali taraqqiyoti zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishning yagona yo'li [The development of human capital is the only way to develop a modern economy]. [Online]. URL: https://review.uz/oz/post/rauf-saloxojaev-inson-kapitali-taraqqiyoti-zamonaviy-iqtisodiyotni-rivojlantirishning-yagona-yoli (Date of Access: 10.01.2021)

10. Akramova, Sh.G. (2011). Inson kapitali: mohiyati va uni o'rganishga yondashuvlar [Human capital: essence and approaches to its study]. *Iqtisod va moliya* / *Ekonomika i finansy. No* 10. Pp. 53-57. [Online]. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/inson-kapitali-mo-iyati-va-uni-rganishga-yondashuvlar. (Date of Access: 23.01.2022)

11. Tashkenbaev, U. (2020) O'zbekistonda shahs o'z salohiyatining necha foizidan foydalana olishi hisoblab chiqildi [It was calculated how many percent of a person can use his potential in Uzbekistan]. [Online]. URL: https://kun.uz/news/2020/10/18/ozbekistonda-shaxs-oz-salohiyatining-necha-foizidan-foydalana-olishi-hisoblab-chiqildi (Date of Access: 10.01.2021)

12. Abdurahmonov, Q.X. (2013) *Inson taraqqiyoti* [Human development]. Tashkent: Fan va texnologiya.

Muallif haqida ma'lumot:

XOLMIRZAYEV Xurshid Naqibillayevich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Andijon davlat universiteti Falsafa kafedrasi dotsenti v.b. E-mail: sokin3548@umail.uz